

**YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDAN AZIYAT CHEKAYOTGAN VA  
COVID-19DAN SO'NG ASORATLARI QOLGAN BEMORLarda NAFAS OLİSH  
FUNKSIYASIGA JİSMONİY REABİLİTATSIYA DASTURİNİNG TA'SİRİNİ  
BAHOLASH**

**Axatova Guljahon Xakimova**

Ilmiy rahbar.

**Tojimatova Shahrizoda Doniyorovna**

Tadqiqotchi.

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti.

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.15870833>***

*Kalit so'zlar: postkovid sindromi, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish funksiyasi, reabilitatsiya, mMRC, FAS, COVID-19, jismoniy toqat.*

### **Kirish**

SARS-CoV-2 virusi keltirib chiqargan pandemianing jilovlanishiga qaramay, COVID-19ni boshdan kechirgan bemorlarning 70% dan ortig‘ida postkovid sindromi (PKS) belgilarining mavjudligi qayd etilmoqda. PKS keng tarqalgan simptomlari orasida nafas qisishi, jismoniy yuklamaga toqatning pasayishi, charchoq, kognitiv buzilishlar va yurak-qon tomir tizimi kasalliklari ajralib turadi. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, postkovid sindromli bemorlarning 50% dan ortig‘ida yurak-qon tomir tizimida turli buzilishlar aniqlangan. Shu bois yurak-qon tomir kasalliklari fonida kechayotgan PKSnini dori vositalarisiz, jismoniy reabilitatsiya orqali davolash alohida ahamiyatga ega.

### **Materiallar va usullar**

Tadqiqotga COVID-19 infeksiyasini o‘tkazgan va yurak kasalliklari mavjud bo‘lgan 128 nafar bemor jalb qilindi. Ular 12 haftalik kardiopulmonal reabilitatsiya dasturida ishtirok etdi.

Baholash mezonlari sifatida tinch holatda va jismoniy yuklama paytida nafas olish ko‘rsatkichlari, nafas qisishini aniqlovchi mMRC (Modified Medical Research Council) so‘rovnomasasi va charchoqni aniqlovchi FAS (Fatigue Assessment Scale) mezonlaridan foydalanildi.

### **Natijalar**

Reabilitatsiya dasturini to‘liq bajargan bemorlar orasida nafas qisishi mMRC shkalasi bo‘yicha 1,0 [0,0 – 0,1] ballni tashkil etdi. Bu nazorat guruhidagi 2,0 [2,0 – 3,0] ballga nisbatan ancha past ( $p<0,05$ ). Jismoniy yuklamaga toqat darajasi (VO<sub>2</sub>max)  $8,3\pm3,8\%$  ga oshdi ( $p<0,05$ ).

FAS bo‘yicha charchoq darajasi reabilitatsiya o‘tgach 27 ball bo‘ldi, bu nazorat guruhidagi 37 ballga nisbatan 32,5% ga kam ( $p<0,05$ ).

### **Xulosa**

Postkovid sindromi nafas olish va yurak-qon tomir tizimi funksiyalarining jiddiy buzilishiga olib keladi. Yurak kasalligi mavjud bo‘lgan bemorlarda bu holat yanada og‘ir kechadi.

Ammo 12 haftalik kardiopulmonal reabilitatsiya dasturi nafaqat nafas qisishini kamaytiradi, balki yurak faoliyatini tiklashga, charchoqni kamaytirishga va jismoniy faollikkha bo‘lgan toqatni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, reabilitatsiya psixologik holatga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu natijalar postkovid bemorlarda dori vositalarisiz, jismoniy reabilitatsiyani asosiy muqobil yo‘nalish sifatida tavsiya etishga asos bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. JSST. Aholi uchun COVID-19 (koronavirus) bo‘yicha tavsiyalar. 2023.
2. Mayo Klinika. COVID-19dan tiklanish: Nima kutish kerak. 2024.
3. Yevropa Kardiologiya Jamiyati. Post-COVID yurak reabilitatsiyasi. 2024.
4. Reabilitatsiya Tibbiyoti Jurnalni. Post-COVID bemorlarda o‘pka va yurak reabilitatsiyasi. 2023.
5. Yaponiya Sog‘liqni Saqlash Agentligi. COVID-19dan so‘nggi tiklanish protokollari. 2024.